

XALQ OG‘ZAKI IJODIDA ASSOTSIATSIYALARING MOHIYATI

*G‘ulomjonova Mubdi’mma G‘ayratjon qizi
FarDU talabasi*

Annotatsiya: mazkur maqolada assotsiatsiya, uning turlari hamda xalq og‘zaki ijodidagi o‘rni to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: assotsiatsiya, yondoshlik, o‘xshashlik, qarama-qarshilik, topishmoq, innovatsion, tasavvur

Avvalo shuni unutmasligimiz kerakki, inson boshqa tirik mavjudotlardan aqli, ilmi va nutqi bilan ajralib turadi. Shuning uchun inson boshqa jonzotlardan ustun sanaladi. Inson o‘zligini anglashi va o‘zining insoniylik burchini mukammal bajarishi uchun ma’lum e’tiqodga ega bo‘lishi, hayotning asl mohiyati nimada ekanligini chuqur anglashi lozim. Bunda esa yaxshi ta’lim va tarbiyaning o‘rni nihoyatda katta. Hozirgi kunda zamonaviy ta’lim dasturlari o‘quvchilar to‘liq o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan katta hajmdagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bu holatda o‘qituvchi oldida bolalarni mavzuga jalb qilish, olgan ko‘nikmalaridan foydalanishga o‘rgatish, o‘quvchilarining yangi bilimlarni majburlash bilan emas, o‘z tashabbusi bilan egallashiga ishonch hosil qilish kabi muhim vazifalar turadi. Agar bola materialni bir mavzuda emas, balki bir nechta mavzularda o‘zlashtirishini inobatga olsak, bu imkonsizdek ko‘rinadi. Ushbu ta’lim muammosini hal qilish uchun sinfda ta’lim tizimiga innovatsion o‘qitish texnologiyalarini joriy etadigan turli yondashuvlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bunday innovatsion yondashuvni amalga oshirishning samarali usullaridan biri bu assotsiatsiya usuli hisoblanadi, chunki kichik mакtab o‘quvchilarida ixtiyorsiz xotira ixtiyoriy xotiraga qaraganda ustunlik qiladi. Assotsiatsiya – bu tasvir va g‘oyalar o‘rtasida semantik aloqani paydo qiladigan jarayon. Agar bola o‘quv materialini shaxsiy his-tuyg‘ulari va taassurotlariga tayangan holda o‘rgansa, uni osongina eslab qoladi. Assotsiatsiya shaxsiy tushunchalar, faktlar, buyumlar, hodisalar o‘rtasidagi munosabatlardir, natijada bir kontseptsiyani eslash boshqasini xotiraga keltiradi. Har bir inson assotsiativ fikrlash turiga ega va undan kundalik hayotda ko‘p foydalanadi. Assotsiatsiyalar turli sabablarga ko‘ra paydo bo‘lishi mumkin: rang, ta’m, shakl, ovoz, harakat, maqsad, miqdor. Assotsiatsiyalash bu bir predmet va hodisani boshqa predmet va hodisa bilan bog‘lash orqali ularning biri paydo bo‘lgani sari ikkinchisi ham inson ongida gavdalanishi demakdir.

Asosan uch xil assotsiatsiya mavjud: qarama-qarshilik assotsiatsiyasi – avval idrok qilingan qarama-qarshi sifatlarga ega bo‘lgan narsa va hodisalarning birortasini takror idrok qilish yoki tasavvur qilish mu-nosabati bilan boshqalari obrazlarining ixtiyorsiz ravishda ongda gavdalanishidan iborat qonuniyat. Keling ushbu

assotsiatsiyani topishmoqlar misolida ko‘rib chiqamiz:

1) Soqoli bor, mo‘ylovi yo‘q. (echki) Mazkur topishmoqda qarama-qarshilik assotsiatsiyasi muhim rol o‘ynaydi (bor, yo‘q). Buning ta’sirida inson tasavvuriga soqoli bor, ammo mo‘ylovi yo‘q o‘xhash narsalar kela boshlaydi. Shu orqali topishmoqning javobini topish osonlashadi.

2) Yelkasi bor, boshi yo‘q, Oyog‘i bor, qo‘li yo‘q. (stul) Ushbu topishmoqda qisman yondoshlik assotsiatsiyasi ham mavjud, chunki inson ongida yelka so‘ziga nisbatan bosh so‘zi, oyoq so‘zi ishlatilsa qo‘l so‘zi ergashib kelaveradi. Ana shu assotsiatsiyalarni bir-biriga zid ya’ni inkor qilgan holda topishmoqda qarama-qarshilik assotsiatsiyasi yuzaga kelgan.

3) Qishda uqlab yalang‘och, Bahor qo‘yar yashil soch. (tol daraxti) Ko‘rib turganimizdek qarama-qarshilik assotsiatsiyasi nafaqat antonim so‘zlar, balki ma’nosi antonimga yaqin bo‘lgan so‘zlar yordamida ham hosil qilinishi mumkin: qish-bahor.

4) Minglab ignani ko‘rdim, Teshigi yo‘q hech birin. (tipratikan) Ignan so‘zi aytilsa inson tasavvurida uchli va teshigi bor predmet kelishi tabiiy hol. Lekin igna ammo teshigi yo‘q deyilsa, mana shu birgina qarama-qarshilik assotsiatsiyasi natijasida inson ongida dastavval paydo bo‘lgan predmet ya’ni igna o‘z o‘rnini majoziy ma’nodagi boshqa bir predmetga bo‘shatib beradi va topishmoq javobini topish osonlashadi.

Assotsiatsiyaning yana bir turi yondoshlik assotsiatsiyasi hisoblanadi. Bunda avval bir vaqtida yoki ketma-ket idrok qilingan narsa va hodisalarining birontasini qayta idrok yoki tasavvur qilish munosabati bilan ixtiyorsiz ravishda ongda boshqalarining ham obrazlari gavdalanadi. Masalan:

1) Qanoti bor uchmaydi, quruqlikda yurmaydi. (baliq) Ushbu topishmoqning javobini yondoshlik assotsiatsiyasi yordamida topamiz. Bunda qanot so‘zi orqali inson ko‘z o‘ngida jamiki qanoti bor narsalar, ya’ni qanotga yondosh predmetlar(qushlar, parrandalar, ayrim hayvonlar) kelishi yondoshlik assotsiatsiyasi sabab yuzaga keladi.

2) Boshida bor kokili, Belidadir hosili. (makkajo‘xori) Mazkur topishmoqdagi asosiy yondoshlikni “kokil” so‘zi orqali topish qulayroqdir. Bu so‘zni eshitishimiz bilanoq tasavvurimizga kokili bor bo‘lgan predmetlar(tol, makkajo‘xori va hokazo) keladi. Hosil so‘zi yordamida esa uning javobi aniqlashadi.

3) Ikki yaproq bir tanda, Kezar yozda chamanda. (kapalak) Yoz fasli yodga olinganda eng avvalo inson ongida ariqlarda shildirab oqayotgan suvlar, gullar ustida charx urib uchayotgan kapalaklar kelishi tabiiy hol. Shunday ekan ushbu topishmoqda yoz fasli orqali yondoshlik assotsiatsiyasi yuzaga kelayotganini ko‘ramiz. Uning javobini aniqlashtirish uchun esa o‘xhashlik assotsiatsiyasi yordamida yaproqqa qiyos etilayotgan predmetni topish maqsadga muvofiqidir.

O‘xhashlik assotsiatsiyasi— bir-biriga o‘xhash belgilarga ega bo‘lgan narsa va birortasini idrok qilish munosabati bilan ongda boshqalarining ham obrazlari ixtiyorsiz ravishda tiklanishidan iborat qonuniyat. Ko‘plab topishmoqlarda o‘xhashlik

assotsiatsiyasi ustunlik qiladi. Misol uchun:

1) Tomdan tuxum irg‘itdi. (do‘l) Ushbu topishmoqda tuxumning shakli, ya’ni dumaloqligi do‘lning shakliga o‘xshatish assotsiatsiyasi yordamida qisman o‘xshatilgan. Shu sababli topishmoqning javobini topishda tuxum so‘zi kalit so‘z hisoblanadi.

2) O‘zi pillaga o‘xshar, Ichi tillaga o‘xshar. (yeryong‘oq) Bu topishmoqda pilla orqali shaklidagi, tilla orqali esa rangidagi o‘xhashlikka ishora qilingan.

3) Uyga osdik bitta nok, Yop-yorug‘ bo‘ldi har yoq. (lampochka) Ushbu topishmoqning javobini topishda avvalo nokning shakli ko‘z oldimizda gavdalanadi. Ana shunday shaklga ega hamda yorug‘lik tarqatadigan predmet deyilganda esa inson tasavvuriga dastavval lampochka kelishi shubhasiz.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, assotsiatsiyalardan o‘rinli foydalana olishni bilgan o‘qituvchi o‘quvchilariga ham yetarli darajada bilim bera oladi. Har bir mamlakatning taraqqiyoti, ma’naviy yuksalishi rivojlanishi, shak-shubhasiz, shu yurtning bilimli, shijoatli yoshlari qo‘lidadir. Bunday yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o‘qitishni yuqori pog‘onalarga olib chiqish singari sharafli va mas’uliyatli vazifalar, avvalo, o‘qituvchi va tarbiyachi murabbiylar zimmasiga yuklatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Internet saytlari